

Orkestrning noyob mehmonlari



Ba'zan har qanday konsertda uchratish qiyin bo'lgan noyob cholg'ularni orkestrda uchratish mumkin.

Ular **noyob mehmonlar** deb ataladi. Bunday cholg'ular musiqaga o'ziga xos tovushlar jilosini – mayinlik, tantanavorlik yoki ertaknamolikni hadya etadi.



Saksofon jezdan yasalgan, biroq **yog'och damlilar oilasiga** mansub. Bunda tovush klarnetdagi kabi qamish deb nomlanadigan tilchaning tebranishidan hosil bo'ladi. Saksofon simfonik orkestrda kam uchraydi, biroq



jaz musiqasida ko'p yangraydi va unga quvnoq kayfiyat beradi.



Orgán – eng mahobatli musiqiy cholg'u. U fortepianoga o'xshaydi, biroq torlar o'rniga unda turli o'lchamdagi **quvurlar** bor, ularning ichidagi havo esa tovush hosil qiladi.

Organ ijrochisi uni ham qo'llari, ham oyoqlari bilan chaladi, chunki unda bir nechta klaviatura bor. Organ tovushi shivirlash kabi past yoki momaqaldiroqli shamol kabi kuchli bo'lishi mumkin.



Organni bosh konservatoriyamizda tinglash mumkin.

Klassik gitára – 6 ta torga ega bo'lgan torli cholg'u. Musiqachi torlarni barmoqlari yoki noxun* yordamida chertib chaladi.

Gitara past, jarangli va hatto g'amgin yangrashi mumkin. Ba'zan gitara orkestr "mehmoniga" aylanib, musiqaning o'ziga xos va yoqimli yangrashi uchun xizmat qiladi.

23



Árfa – qadimiy torli cholg'ulardan biri. U barglarning shitirlashi kabi mayin va yumshoq yangraydi. Arfa orkestrdagi boshqa cholg'ularga jo'r bo'ladi.

Musiqachi torlarni barmoqlari bilan chertib, mo'jizaviy tovushlar jilosini yaratadi. Arfa orkestrda musiqaning yengil va ertaknamo yangrashiga yordam beradi.

24



Chelésta – klavishli zarbli cholg'u. U kichkina pianinoga o'xshaydi, biroq ichiga torlar emas, balki metall plastinkalar o'rnatilgan. Musiqachi klavishlarni bosganida, to'qmoqchalar plastinkalarga urilib, sekin yoki jarangli tovush chiqaradi.

Musiqaning sirli yoki nozik yangrashi talab etilganda, chelestadan foydalaniladi.

25



*noxun – kichik plastinka

Tovushlar o'rmoni



Daraxtlarning har bir turi cholg'uga "betakror ovoz" hadya etadi. Daraxt tovushga o'ziga xos ta'sir etadi: unga **mayin** yoki **jarangli tus** beradi.

Qattiq yog'ochli (bargli) daraxt turlari

Bunday daraxtlarga **zarang**, **palisánder**, **obnus**, **sezalpíniya** kabilar kiradi. Ular mustahkam va uzoq vaqt xizmat qiladi hamda o'z shaklini saqlab qoladi. Bu kabi daraxtlar yog'ochidan **skripka**, **ált** va **gitara asosi**, shuningdek, **fortepianoning qora klavishlari** yasaladi. Qattiq yog'och cholg'uning **sof** va **kuchli** yangrashiga yordam beradi.



zarang



palisánder



óbnus



sezalpíniya

Yumshoq yog'ochli (ignabargli) daraxt turlari

Archa yoki **kedr** yog'ochi yengil va egiluvchan daraxt turlariga mansub, shu bois **tovush tebranishlarini yaxshi** yetkazib bera oladi. Ular **violonchel, gitara** va **skripka dekasini*** yasashda qo'llaniladi. Tovush jarangli va sof yangrashi uchun avval yog'och quritiladi. Ignabargli daraxt yog'ochidan yasalgan cholg'ular havo kabi yengil va shaffof yangraydi.

Har qanday daraxtdan yasalgan cholg'u o'z ovozigacha ega. **Orgán** – ulug'vor, **árfa** – mayin, **gitára** esa yoqimli yangraydi. Ularning barchasi katta musiqiy olamning bir qismi bo'lib, undagi har bir tovush tabiatdan va inson mehnatidan yaraladi.



kedr



archa



1. Nima uchun **orgán** mahobatli musiqiy cholg'u deyiladi?
2. **Árfa** qanday yangraydi va nima uchun u sehrli tovushlarga qiyoslanadi?
3. **Saksofón** nimadan yasalgan va nima uchun u yog'och damli cholg'ularga kiradi?
4. Nima uchun cholg'ularni yasashda har xil daraxt yog'ochidan foydalaniladi?



O'zbekistonda mashhur bo'lgan cholg'ular – **dutor**, **tanbur** va **rubob** qaysi daraxtdan yasalishini o'rganing va so'zlab bering.



***déka** – torli cholg'ularning yuqori qopqoqchasi